

O'zbekiston va Rossiya yetakchilari telefon orqali muloqot qildilar



14-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Afg'onistonda vujudga kelayotgan vaziyatni hisobga olgan holda mintaqa kun tartibidagi masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, Prezidentlar bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlar rejasini ko'rib chiqdilar.

Manba